



«TASDIQLAYMAN»

«Gidroproekt» AJ
direktori

R.A. Paratov

2026 y.

« »

1. Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajarish bo'yicha texnik topshiriq

Quyidagi model qatoriga mansub avtomobillarni diagnostika qilish, texnik xizmat ko'rsatish, joriy ta'mirlash, shuningdek kapital ta'mirlash:

Chevrolet (Onix, Traverse, Cobalt, Damas) — ishlab chiqaruvchi mamlakat: O'zbekiston, "UzAuto Motors";

"UAZ" (Patriot, Fermer – 390945/552, Vaxtovka – 390945/552/04), "NIVA" (Bronto) — ishlab chiqaruvchi mamlakat: Rossiya.

1.1. Ushbu texnik topshiriq avtotransport vositalarini diagnostika qilish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga qo'yiladigan talablarni belgilaydi (keyingi o'rinlarda — Xizmatlar).

1.2. Buyurtmachi: "Gidroproekt" AJ.

1.3. Xizmatlar ko'rsatish joyi: xizmatlarni ko'rsatuvchi ijrochining joylashgan manzilida.

1.4. Avtotransport vositalarini qabul qilish va topshirish amalga oshiriladi.

1.5. Xizmatlar ko'rsatish uchun avtotransport vositalarini topshirish Buyurtmachining ish vaqtida telefon orqali yoki elektron pochta orqali yuborilgan buyurtma asosida amalga oshiriladi.

2. Xizmatlar ko'rsatishga qo'yiladigan talablar

2.1. Avtotransport vositalarini ta'mirlashni amalga oshirishda ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan tasdiqlangan, avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash bo'yicha normativ hujjatlar, shuningdek sarflanadigan materiallar va ehtiyot qismlar qo'llanilishi lozim.

2.2. Ijrochi xizmatlar ko'rsatishda faqat sifati muvofiqlik sertifikatlari bilan tasdiqlangan original ehtiyot qismlar va sarflanadigan materiallardan foydalanishi shart.

Ijrochi xizmatlar ko'rsatish jarayonida almashtirilgan uzellar va detallarni, shuningdek moy almashtirilganda foydalanilgan (ishlatilgan, b/u) motor moyini Buyurtmachiga qaytarishi shart.

2.3. Ko'rsatilgan xizmatlarning shartnoma shartlariga nomuvofiqligi yoki texnikani ta'mirdan qabul qilish chog'ida aniqlash, imkoni bo'lmagan boshqa kamchiliklar (yashirin kamchiliklar), shu jumladan Ijrochi tomonidan qasddan yashirilgan kamchiliklar aniqlangan taqdirda, Buyurtmachi bir ish kuni ichida bu haqda Ijrochiga xabar berishi shart. Ijrochi mazkur kamchiliklarni shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bartaraf etishi lozim.



2.4. Xizmatlar avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'llanma va ushbu Texnik topshiriqning 1-ilovasida ko'rsatilgan materiallar va ehtiyot qismlardan foydalangan holda, shuningdek, faqat avtomobillarning haqiqiy texnik holatidan kelib chiqqan holda va Ijrochi tomonidan diagnostika jarayonida aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish bo'yicha Buyurtmachi bilan kelishilgan tavsiyalarga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Ko'rsatiladigan xizmatlarga funksional va texnik talablar

3.1. Ijrochi xizmatlar ko'rsatishni ta'minlaydi:

- malakali ustaxona qabulchisi tomonidan;
- malakali mutaxassislar tomonidan.

3.2. Ijrochi Buyurtmachining avtotransport vositalariga xususiy shaxslarga nisbatan ustuvor tartibda xizmat ko'rsatadi, diagnostika va ta'mirlash ishlarini amalga oshiradi, oldindan yozilish orqali xizmat ko'rsatiladigan iste'molchilar bundan mustasno.

3.3. Avtotransport vositalari mazkur Shartnoma bo'yicha Xizmatlar ko'rsatish uchun Ijrochi tomonidan avtotransport vositasi taqdim etilgan paytdan boshlab 1 (bir) soat ichida qabul qilinadi.

3.4. Xizmatlar ko'rsatish uchun asos bo'lib, ko'rsatiladigan Xizmatlar ro'yxati, Xizmatlar ko'rsatish muddati va ularning qiymati ko'rsatilgan buyurtma-naryadni rasmiylashtirish hisoblanadi. Dastlabki buyurtma-naryad Ijrochi tomonidan avtotransport vositasi kelib tushgan paytdan boshlab 1 (bir) soat ichida rasmiylashtiriladi.

Buyurtmachining avtotransport vositasi Xizmatlar ko'rsatish uchun qabul qilinayotganda, Ijrochi avtotransport vositasining texnik holatini foydalanishni taqiqlovchi nosozliklar mavjudligini aniqlash maqsadida tekshiradi (diagnostika qiladi). Bunday nosozliklar aniqlanganda, Ijrochi bu haqda Buyurtmachiga xabar beradi hamda avtomobilni ta'mirlashni boshlashdan oldin Buyurtmachiga "Nuqson dalolatnomasi"ni taqdim etadi, ishlar hajmi va qiymati kelishilgandan so'ng aniqlangan nosozliklar buyurtma-naryadga kiritiladi.

3.5. Agar Buyurtmachining transport vositasi o'z yurishi bilan harakatlana olmasa yoki keyingi harakat xavfsiz bo'lmasa, Ijrochi bunday avtomobilni texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga (XKS) yetkazib berishni (buklash yoki evakuatsiya qilishni) ta'minlaydi.

3.6. Ijrochi Buyurtmachi vakili tomonidan buyurtma-naryad imzolangandan so'ng Xizmatlar ko'rsatishni boshlaydi. Xizmatlar ko'rsatish jarayonida aniqlangan va buyurtma-naryadda ko'rsatilmagan muhim nuqsonlar faqat Buyurtmachining yozma roziligi olingandan keyin bartaraf etilishi lozim.

4. Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari va texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga qo'yiladigan talablar

4.1. Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish stansiyasi (keyingi o'rinlarda — XKS):

- avtomobillar uchun (kafolatdagi) original ehtiyot qismlar bilan ta'minlagan



holda diagnostika, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha barcha turdagi xizmatlarni amalga oshiradi;

- avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish avtotransport vositalari ishlab chiqaruvchi zavodlar tomonidan belgilangan mehnat sig'imi talablariga qat'iy muvofiq amalga oshiriladi;

- ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yakuniy nazorat qilish tizimi mavjud;

- yetishmayotgan ehtiyot qismlarni omborga 4 kun muddatda yetkazib berish imkoniyati mavjud.

- xizmatlar ko'rsatish jarayonida Buyurtmachi vakilining ishtirok etish imkoniyatini ta'minlaydi;

- buyurtmachining avtomobillarini ta'mirlashdan kelib chiqadigan chiqindilarni utilitatsiya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

- agregatlarni ta'mirlash imkoniyatiga ega bo'ladi;

- Avtomobillarning old va orqa osma qismlarini diagnostika va ta'mirlash, g'ildiraklarning burilish-burchagini (razval-sxod) sozlash, elektr jihozlarini diagnostika va ta'mirlash, ichki yonuv dvigateli (IYD) va uzatma qutisini diagnostika, ta'mirlash va almashtirish xizmatlarini o'z ichiga oladi.

- 4.2. Ko'rsatiladigan xizmatlar turlariga ko'ra texnik jihozlash:

No	Uskuna nomi	Mavjudligi, dona
1	2	3
I	Nazorat-diagnostika ishlari	
1	Kompyuter diagnostikasi tizimi kompleksi (diagnostika skaneri)	16
II	Reglament bo'yicha texnik xizmat ko'rsatish ishlari	
1	Ishlatib bo'lingan moyini yig'ish qurilmasi	1
No	Uskuna nomi	Mavjudligi, dona
1	2	3
2	Motor va transmissiya moyini taqsimlovchi uskuna (moy taqsimlovch kolonka)	1
3	Moylash uskunasi	1
4	Tutun o'lchagich	1
5	Moy 'bosimini o'lchash moslamasi	1
III	Agregatlarni ta'mirlash ishlari	
1	Dvigatelni demontaj qilish/yig'ish stendi	1
2	NO'Pni demontaj qilish/yig'ish stendi	1
3	Reduktorlarni demontaj qilish/yig'ish stendi	1
4	Generato'rlar va starterlarni tekshirish uchun stend	1



5	Elektr zanjirlarini sinovdan o'tkazish moslamasi	1
6	Elektr jihozlarini tekshirish uchun sinov stendi	1
7	Dvigatelni yechish/o'rnatish uchun ko'taruvchi kran	1
8	Avtomobil ko'targichi (ikki ustunli)	1
9	Avtomobillar uchun g'ildiraklar burchaklarini to'g'irlash stendi (g'ildiraklarni tekislash stendi)	1

5. Ehtiyot qismlarni sotib olish va o'rnatish

5.1. Ijrochi Buyurtmachining avtotransport vositalarini ta'mirlash uchun barcha agregatlar, detallari, bloklari, ishlatiladigan materiallar, moylash vositalari va boshqa yordamchi materiallarni mustaqil ravishda sotib oladi, agar mavjud bo'lmasa buyurtma qiladi, yetkazib berishni to'laydi va xizmatlar ko'rsatishda foydalanadi.

5.2. O'rnatiladigan ehtiyot qismlar, bloklar va agregatlar normativ hujjatlar talablariga (texnik shartlar, davlat va tarmoq standartlari) muvofiq, ularning seriyali ishlab chiqarish sharoitida (zavod yig'ilishi) ishlab chiqarilgan bo'lib, ushbu avtotransport vositasi ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan qo'llanilishi tavsiya etilgan.

5.3. Barcha ehtiyot qismlar, uzellar va agregatlar uchun zarur bo'lgan ilova hujjatlar (muvofiqlik sertifikat, sifat deklaratsiyalari) mavjud bo'lib, ularga kamida ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan belgilangan muddatdan kam bo'lmagan kafolat taqdim etiladi. Ijrochi shartnoma doirasida o'rnatilgan ehtiyot qismlar yangi, ilgari foydalanilmagan, seriyali modellar ekanligini hamda agar shartnomada boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa, dizayn va materiallardagi eng so'nggi o'zgartirishlarni aks ettirishini kafolatlaydi.

5.4. Xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan xizmatlar, ehtiyot qismlar, uzellar va agregatlar ro'yxati Texnik topshiriqqa ilova qilingan 1-ilovada ko'rsatilgan.

6. Avtotransport vositalarining xavfsizligini kafolatlash

6.1. Ijrochi Buyurtmachiga avtotransport vositalarining, shuningdek ularga o'rnatilgan maxsus jihozlarning saqlanishini, ularni o'z maqsadlarida ishlatmaslik va qo'llamaslikni kafolatlaydi. Mazkur majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, Ijrochi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, jinoiy javobgarlikkacha bo'lgan javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Iqtisod va moliya

bo'yicha direktor o'rinbosari

To'rayev N. N.

Umumiy masalalar bo'yicha

direktor o'rinbosari

Shukurova S. E.

Ma'muriy-xo'jalik bo'limi boshlig'i

Mo'minov Sh. B.

Ma'muriy-xo'jalik bo'limi
boshlig'ining o'rinbosari

Xodjayev F. A.

Bosh mexanik

Nurulloev Sh.R.



**Avtotransport vositalarini ta'mirlash jarayonida qo'llaniladigan
xizmatlar, ehtiyot qismlar va materiallar qiymati**

№	Xizmatlarning nomi	Xizmat soni	Ehtiyot qismlar va sarflanadigan materiallari narxi, bundan oshmaydi
Dvigatel			
1	Dvigatelni yechish/o'rnatish	24	
2	Dvigatelni ta'mirlash	24	
3	Blok boshini ta'mirlash	24	
4	Blokni yo'nish	24	
5	Kolenvalni silliqdash	24	
6	Halqa/porshenni almashtirish	24	
7	Zanjir, GRM kamarni almashtirish	24	
8	Tirsakli valning old sal'nigini almashtirish	24	
9	Tirsakli valning orqa sal'nigini almashtirish	24	
10	Klapanlarni sozlash	24	
11	Dvigatelni skanerlash	12	
12	Rampadagi kompressiya bosimini	24	
13	Blokni (tirsakli valni) tekshirish	24	
14	Ressivtrni yechish/o'rnatish	12	
15	Dvigatelni mustaxkamlash kronshteynini (yostiqchasini) almashtirish	12	
Transmissiya, Xarakat qismi			
1	NO'P olib tashlash/o'rnatish	36	
2	NO'P ta'mirlash	36	
3	Taqsimlash qutisini olib	36	
4	Taqsimlash qutisini ta'mirlash	36	
5	Uzatgichni (uzatish o'qini) olib tashlash/o'rnatish va ta'mirlash	36	
6	Oldingi uzatgichni sal'nik uzatgichni almashtirish	36	
7	Orqa ko'prik reduktorini olib tashlash/o'rnatish	36	
8	Old ko'prik reduktorini olib tashlash/o'rnatish	36	
9	Orqa ko'prikni olib tashlash/o'rnatish	36	
10	Old ko'prik reduktorini ta'mirlash	36	
11	Kengaytirgich kronshteynini almashtirish	36	
12	Maxovik/halqani almashtirish	12	
13	Osmani tekshirish	36	



To'rmozlar, Rul boshqaruvi			
1	Tormoz tizimini stendda tekshirish	48	
2	Rul reykasini sozlash (rul reduktorini)	36	
Elektr ta'minoti, Sovutish, Elektr jihozlari			
1	Elektr jihozlarini tekshirish	24	
2	Generatorni ta'mirlash	24	
3	Starterni ta'mirlash	24	
4	Sovutish tizimini tekshirish	24	
5	Termostatni almashtirish	24	
6	Isitgichni tekshirish	24	
7	Kompyuterni qayta dasturlash	24	
8	O't oldirish qulfini almashtirish	24	
9	Isitgich blokini almashtirish va tekshirish	24	
10	Elektr jihozlaridagi muammolarni qidirish	24	
Texnik xizmat ko'rsatish			
1	Transmissiya moyini almashtirish	48	
2	G'ildirakni tekislash (o'q)	36	
3	Faralarni sozlash	12	
4	Dvigatel diagnostikasi/tekshiruvi	48	
5	Kontaktarni almashtirish	24	
6	Yuqori kuchlanishli simlarni almashtirish	36	
7	Moy 'filtrini almashtirish	60	
8	Yoqilg'i filtrini almashtirish	60	
9	Havo filtrini almashtirish	60	
10	Motor moyini almashtirish	60	
11	O't oldirish shamplarini almashtirish	36	
12	Ilg'ichni o'rnatish	12	
13	Loy himoyasini o'rnatish (to'plam)	12	
14	Shinalarni o'rnatish ishlari	24	
15	Diagnostika	36	
16	Starterni ta'mirlash (diod ko'prigi)	48	
Avtotransport vositalarini ta'mirlash jarayonida qo'llaniladigan ehtiyot qismlar va materiallar qiymati			
1	Motor moyi	72	
2	Oldingi tormoz kolodkasi	36	
3	Orqa tormoz kolodkasi	24	



4	Oldi/orqa stupitsa podshipnigi	24	
5	Benzanasos	48	
6	Karbyurator	36	
7	Injektor	36	
8	Radiator	12	
9	Antifriz	36	
10	Gidravlika moyi	36	
11	Termostad	24	
12	Granata (SHRUS)	24	
13	Sharovoy tayanch	48	
14	Rul kolonkasi	12	
15	Rul kuchaytirgichi (GUR)	12	
16	Amortizator	24	
17	Razdatka	12	
18	Blok salnigi	12	
19	Porshen halqalari	12	
20	Porshen	12	
21	Golovka prokladkasi	12	
22	Klapan	12	
23	Vkladish	12	
24	Moy nasosi	12	

Ma'muriy-xo'jalik bo'limi boshlig'i

Ma'muriy-xo'jalik bo'limi
boshlig'ining o'rinbosari

Bosh mexanik

Mo'minov Sh. B.

Xodjayev F. A.

Nurulloev Sh.R.